



ILG`OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA UNING TAMOYILLARI

Orziyeva Ruxshona

Musayeva Aziza

Respublika musiqa va san'at kolleji

Bugungi jamiyatda har tomonlama yetuk, barkamol shaxslar kerak ekan, ta`lim sohasida olib borilayotgan islohotlar bunday shaxslarni tarbiyalashda katta imkoniyatlar ochib bermoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasi keng ko`lamli, serqirra tushuncha bo`lib, u ta`lim – tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o`z o`rniga ega.

Ta`lim-tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o`tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo`nalishlari shu faoliyatdan ko`zda tutilgan maqsadlarni to`liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya`ni texnologiyaga aylanib bormoqda. Shu asosda ta`lim-tarbiya sohasida so`nggi davrda pedagogik texnologiyaga amal qila boshladi.

Istiqlol mavkurasi va sharqona pedagogikaga yo`g`rilgan ta`limning milliy modeliga mos o`zbek maktabini yaratish, yangicha tafakkur va dunyoqarash, milliy g`oyani shakllantirish hamda mustaqil yurtimiz xalq ta`limini jahon andozalari darajasiga ko`tara borish uchun ilmiy asoslangan pedagogik texnologiya zarurati tobora sezilmoqda.

Shuningdek, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ham ta`lim tizimiga ilg`or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o`zlashtirish zarurligi ta`kidlanadi. Pedagogik texnologiyalar o`zi nima?

Pedagogik nuqtai nazardan texnologiya bu shaxsni o`qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o`zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta`minlaydigan pedagogik faoliyatdir. “Texnologiya” tushunchasi reguliyativ (tartibga solib turuvchi) ta`sir etish kuchiga ega bo`lib, erkin ijod qilishga undaydi.

Pedagogik texnologiyaga “yangi so`zi”ni ishlatish “eski”ning samarali tomonini olib, ta`lim-tarbiya jarayonini loyihalashda yangicha texnologiya asosida barkamol etuk shaxslarni etkazib berish tushuniladi.

Oradan vaqt o`tishi davomida shu ifodalarni qo`llash darajasi kengayib borishi natijasida ularning ma`nolari ham tegishlicha o`zgarib bordi. Hozirda kelib esa pedagogik texnologiya ifodasining zamonaviy ilmiy asoslangan yagona ta`rifini belgilash maqsadida bir qancha yirik olimlar tomonidan turli fikrlar va xulosalar asoslab berildi.

“Pedagogik texnologiya – bu ta`lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o`zaro ta`sirini inobatga olib, o`qitish va bilim o`zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo`llashning tizimli metodidir”.

Oddiy qilib aytadigan bo`lsak, ilg`or pedagogik texnologiya deganimizda o`qituvchi bir soatlik darsda o`zining mahoratini, san`atini qo`llab, har xil usul va metodlardan foydalanib dars o`tishi davomida butun sinf o`quvchilarini faollashtirib, barcha



o`quvchilarni darsga qatnashtirib, darsning faol ishlovchisi o`quvchi darajasiga erishishni tushunishimiz kerak.

Xullas, pedagogik texnologiya-o`qitish usuli, ma`lum ma`noda ta`lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuidir.

Ta`kidlash lozimki, xalqaro tajribalarga suyangan holda yirik pedagog olimlarimiz J.G.Yo`ldoshev, N.Sayidahmedov, M.Ochilovlar tomonidan pedagogik texnologiyaning ilmiy nazariy asoslari yaratildi, tamoyillari aniqlandi.

Ilg`or pedagogik texnologiya yoxud innovaciya tushunchalari garchand yangi so`z sifatida qo`llanilayotgan bo`lsa-da, aslida uning ildizlari uzoq o`tmishga borib taqaladi. O`rta asrning buyuk mutaffakirlari Umar Xayyom, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino kabi olimlar “izlanishga asoslangan” o`qitish g`oyasini ilgari surganlar.

Umar Xayyom o`zining “Matematik traktatlar?”ida “Ozgina o`yla, o`zing topasan”, “Fikrlasang, bilib olasan”, -degan da`vatlar asosida o`qitish lozimligini qayd qiladi. Abu Nasr Farobi borliqni fahmlash va bilishning asosi fikrlashda ekanligini uqtiradi.

Hozirgi kunda keng qo`llanilayotgan “Ilg`or pedagogik texnologiya” tushunchasi zamirida ham fikrlar yotadi, chunki ijodiy fikrlash jarayonida o`quvchi til hodisalarini fahmlaydi, uni bilib olish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Ilmiy metodik adabiyotlarda yangi pedagogik texnologiya (yoki innovaciya-yangiliklarni amaliyatda qo`llash)-noan`anaviy usullarini qo`llash, ulardan foydalanishdir, deb talqin etiladi. Ko`pgina o`qituvchilar darslarda o`yin-topshiriqlardan foydalanishni ham darslarni turli shakllarda tashkil etishni ham yangi pedagogik texnologiya deb tushunishadi. Biz bunday qarashlarga qarshimiz? Chunki bular yangi pedagogik texnologiyaning birgina elementi hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiya bizning nazarimizda quyidagi elementlardan iborat.

1. Ta`lim mazmunini to`g`ri belgilash.
2. Belgilangan ta`lim mazmuniga muvofiq keladigan zamonaviy metod, vosita va usullarni qo`llash.

Hozirda ta`lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo`nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llashdan iborat. Ma`lumki, ta`lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o`z bilim va tajribalarini o`sib kelayotgan avlodga o`rgatishdan iborat bo`lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Insoniyat hayoti axborotlar bilan chambarchas bog`liq. Boshqacha aytganda, insonning har bir harakati axborot olish yoki uzatish yoki undan foydalanish yoki o`rganish, o`zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat. Shundan hozirgi insoniyat civilizaciyasini axborot civilizaciysi deb ataladi.

Shu nuqtai nazardan civilizaciya tushunchasiga berilgan ta`riflardan biri quyidagicha: “Civilizaciya-axborotni to`plash, tahlil qilish va foydalanish hamda atrof-muhit va o`zi haqida axborot yaratish uchun eng ko`p ma`lumot olishga qodir bo`lgan moddaning yuqori turg`un holatidir”.

Bu ta`rifdan axborotni avloddan avlodga uzatishning, ya`ni ta`lim-tarbiya civilizaciyaning mavjudlik sharti hisoblanadi.



Axborotlarning inson hayotidagi ahamiyatini aniqlashga qiziqish ortishi tabiiy. Bu haqdagi ta`riflardan biri quyidagicha: "Axborot-bu sezgi a`zolarimizni tashqi olamga moslashtirishimiz jarayonida biz undan oladigan mazmun belgisi" (N.Viner). bu ta`rif tirik organizmning tashqi muhitdan axborotni idrok qilishiga doir xususiy holga tegishli.

Ushbu aytilganlar asosida pedagogika texnologiyaning eng qisqa va umumlashtirilgan ta`rifini ta`rifini quyidagicha deb hisoblashimiz mumkin.

Pedagogik texnologiya-barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Pedagogik texnologiya-kafolatlangan ta`lim.

Pedagogik texnologiya o`quvchini mustaqil o`qishga, bilim olishga, fikrlashga o`rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya jarayonida o`qituvchi rahbarligida o`quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o`rganadi, o`zlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy daturi to`g`risida" gi qonunlari.
2. Bespalko V.P.Slaguemiu pedagogicheskoy texnologii. M.pedagogika 1989g.
3. Nazarov T.S.Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyucii M.Pedagogika-1997g.